



UDK: 502.75

TIKANDARAXT (*GLEDITSCHIA TRIASANTHOS L.*) DARAXTINING KURTAKLANISHINI FENOLOGIK O`RGANISH

Erkinaliyeva Sug`diyona Elyorjon qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Gleditschia triacanthos L.* (Tikandaraxt) daraxtining biologik va ekologik xususiyatlari, o`shish sharoitlari hamda fenologik rivojlanish jarayonlari haqida ma`lumot berildi.

Kalit so`zi: Tikan daraxti, yoruqsevar, qurg`oqchilikka chidamlik, gul, meva, ildiz bachkisi.

Аннотация: Представлена информация о биологических и экологических особенностях, условиях роста и процессах фенологического развития дерева *Gleditschia triacanthos L.*

Ключевые слова: Колючее дерево, светолюбивое, засухоустойчивое, цветок, плод, подвой.

Abstract: Information was provided on the biological and ecological characteristics, growth conditions, and phenological development processes of the *Gleditschia triacanthos L.* tree.

Keywords: Thorn tree, light-loving, drought-resistant, flower, fruit, rootstock.

Tikandaraxt (*Gleditschia triacanthos L.*) – dukkardoshlar oilasiga mansub, Shimoliy Amerikadan kelib chiqqan, qishda barglarini to`kadigan yirik daraxt. Bo`yi 45 m gacha boradi. Barglari ikki xil: ikki juftli patsimon va oddiy patsimon murakkab, yirik, har bir bargida 8–12 juft bargchalar bo`ladi. Tana va novdalari uzunligi 10–15 sm uzunlikdagi oddiy va uchtalik qattiq tikanlar bilan qonplangan. May–iyun oylarida gullaydi, gullari aslaga boy. Mevalari yirik 30 sm gacha, jigarrang, seret egilgan dukkak. Kech kuzda etiladi va ayrim hollarda novdlardan to`kilmaydi. Ichki mag`zida juda qattiq qobiqli jigarrang urug`lari bo`ladi. Mag`zi shirin. Gledichiya tez o`sadi. Juda yorug` sevar, qo`rg`oqchilikka chidamli, tuproq unmdorligiga talabchan emas. Tuproqning ma`lum darajadagi zichlanishlariga bardoshli, shamol va sovuqqa chidamli. Tutun va changli sharoitda ham o`saveradi. Ildiz bachkilaridan, urug`idan, yozgi qalamchalaridan ko`patiriladi. Tikansiz, pakana, piramidasimon va boshqa



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



turlari mavjud. Ko'chalarni ko'kalamzorlashtirishda, tomoshabog' (park) larga, ihotazolarga, tirik devor uchnun, qo'rg'oqchil va sho'rlangan tuproqli hududlarga ekiladi (1-rasm).



1 – rasm. Tikandaraxt (*Gleditschia triacanthos* L.)

Daraxtlarning rivojlanish fenologiyasini bilish–daraxtlar dunyosining bilishning eng zarur pog'onalaridan biridir.

Hamma tashqi omillar (iqlim, tuproq, odam, hayvonlar, suv va b.) o'simliklarning o'sishi, rivojlanishiga birgalikda ta'sir etadi.

Fenologiyaning vazifasi faqatgina daraxtlarning fenologik o'zgarishlarini tadbiq etmasdan, daraxtlardagi fenologik o'zgarishlarni tabiatdagi o'zgarishlar bilan bog'liqlik me'yorini ham tadqiq etishdir. Shuni ham takidlash zarurki, fenologik kuzatuvlar faqatgina belgilangan reja va tizim asosida doimiy olib borilsagina u ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Daraxtlarda o'sish bosqichlari, shiraning dastlabki harakatining boshlanish kunidan hisoblanadi. Buning kuzatish uchun ertaroq muddatda, daraxtlarning janub tomonidan odamning ko'kragi balandligida bir necha daraxtlarning asosiy tanasini bigiz yoki burov bilan teshib, plastilin yoki loy bilan suvab qo'yiladi. Kuzatuvda loy olinadi va yana yaxshilab suvaladi. Ko'rtaklar yozila boshlaganda shiraning oqishi sezilarli darajada kamayadi.

Daraxtlarda shira yurishining boshlanishi kurtaklarning uyg'onishini boshlanishidan darak beradi. O'rganilishi rejalashtirilgan *Gleditschia triacanthos* L.da



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



kurtaklarning uyg'onish jadalligi, ularning sharoitga moslashganlik darajasidan kelib chiqib turlicha ekanligi kuzatildi.

Kurtaklar asosan yirik bargli daraxtlarda bo'lib, nina barglilarda faqat ninalarining o'sish nuqtasida yashillik ko'rinishi boshlashi ularda o'sish boshlanligidan darak beradi (1-jadval).

1-jadval

***Gleditschia triacanthos* L. da kurtaklarning uyg'onish muddatlari**

T.r	Daraxt nomi	<i>Gle.tria.</i>
	Kuzatuv sanasi	25.04- 2.05
Kurtaklarning uyg'onish muddatlari		
1	Nazorat dalasida	28.04
2	Bog'da	25.04
3	Ko'chada	29.04
	O'rtacha	27.04

Ma'lumotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatining Urganch shahri sharoitda UrDU hududida (bog') *Gle.tria.* 25.04 kuni kurtaklar eng erta uyg'ona boshlagan bo'lsa, ko'chada *Gle.tria.* 28.04 kuni uyg'ona boshlaganligi, kuzatildi.

XULOSA: Daraxtlarning rivojlanish fenologiyasini o'rganish o'simliklarning tashqi va ichki omillarga qanday ta'sir qilishini, shuningdek, ularning o'sishi va rivojlanishini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Bu jarayonlarni tushunish, ko'plab ekologlar, botaniklar va agronomlar uchun zarurdir, chunki bu ilmiy tadqiqotlar o'simliklarni samarali o'stirish va ulardan foyda olish uchun muhimdir. Fenologik kuzatuvlar faqat belgilangan reja asosida doimiy ravishda amalga oshirilganda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Q.Qayimov. "Aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish".-T: "Fan va texnologiya", 2012.



«EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUHOFAZASI
MUAMMOLARI VA ULARNING INNOVATSION YECHIMLARI»
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



2. A.A.Axmedov “O‘zbekistonda manzarali daraxtlar va butalar”- Toshkent: Fan, 2002.

3. Xodjaev N.N. “Dendrologiya asoslari”.-Toshkent: Fan 1994

4. To‘raev B.T. Ergashev M. “Biologiya: O‘simliklar ekologiyasi va geografiyasi”. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2018

5. Xudoyberganov Q.”Xorazm viloyati iqlimining o‘ziga xos xususiyatlari” O‘zbekiston geofani, 2020

6. Baxtiyorovich, M. N. (2021). Effect of humidity and irrigation indicators on the biopotential of local trees in the conditions of Khorezm region. *Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary*.

7. Маткаримов, Н. Б. (2022). Экологическая оценка влияния факторов структуры почв на биометрические параметры местных деревьев на территории Хорезмской области Узбекистана. *Universum: химия и биология*, (5-1 (95)), 31-36.

